

Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th Dec., 2023

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

YOSHLARDA BAG‘RIKENGLIK G‘OYALARINI SHAKLLANTIRISHNING DINIY ASOSLARI

Ilmiy rahbar: X. U. Samatov

Bahramov Shehroz To‘lqin o‘g‘li

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent

Axborot texnologiyalar universiteti Samarqand filiali

“TTKT” fakulteti 23-05-guruh talabasi

Annotatsiya:

Maqolada Yoshlarda bag‘rikenglik g‘oyalarini shakllantirishning diniy asoslari tarbiyalash bo‘yicha pedagogik va innovatsion texnologiyalarini takomillashtirish jihatlari yoritiladi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev xalqimizning dunyoqarashida tobora chuqur va mustahkam o‘rin egallayotgan bag‘rikenglik tamoyili to‘g‘risida shunday deydi: “Bizning qadimiy va saxovatli zaminimizda ko‘p asrlar davomida turli millat va elat, madaniyat va din vakillari tinch-totuv yashab kelgan. Mehmondo‘stlik, ezgulik, qalb saxovati va tom ma‘nodagi bag‘rikenglik bizning xalqimizga doimo xos bo‘lgan va uning mentaliteti asosini tashkil etadi”.

Kalit so‘zlar: etnomadaniyat, bag‘rikenglik, etnomadaniy bag‘rikenglik, talabayoshlar ma‘naviyati, mustaqillik, tolerantlik.

Аннотация:

В статье рассмотрены аспекты совершенствования педагогических и инновационных технологий воспитания религиозных основ формирования идей толерантности у молодежи Президент Республики Узбекистан Ш.Мирзиёев говорит о принципе толерантности, занимающем все более глубокое и прочное место в мировоззрении нашего народа: «На нашей древней и щедрой земле представители разных национальностей и народов, культуры и религии жили на протяжении многих веков и жили мирно. «Гостеприимство, доброта, щедрость сердца и буквальная толерантность всегда были свойственны нашему народу и составляют основу его менталитета»

Ключевые слова: этнокультура, толерантность, этнокультурная толерантность, духовность студентов, самостоятельность, толерантность.



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th Dec., 2023

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

Kirish

Yoshlarga tinchlik va bag'rikenglikning ulug' ne'mat ekani, uni qadriga yetish, jamiyat tinchligi va xavfsizligiga tahdid soluvchi omillar to'g'risida zarur ma'lumotlarni berish, ularda O'zbekistonning madaniy rangbarangligi, yurtimizdagi millat va elatlarning urf-odatlarini va an'analarni hurmat qilish, shuningdek, ana shu madaniy turfaxillikni asrab-avaylash kabi ijobiy fazilatlarni shakllantirish muhim ahamiyatga egaligi ta'kidlab o'tildi.

Darhaqiqat, bugungi kunda yurtimizda diniy bag'rikenglik va millatlararo totuvlik g'oyalarini keng targ'ib qilish, yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, diniy ekstremizm va terrorizmning salbiy oqibatlari, uning oldini olish, dinlar o'rtasida o'zaro ishonch, turli dinlarga e'tiqod qiluvchi insonlar o'rtasida o'zaro hurmat, teng huquqlik, tinchlik va totuvlikni targ'ib qilish davlatimiz siyosatining ustuvor maqsadlaridan biridir. So'zga chiqqanlar bugungi kunda O'zbekistonda barqaror taraqqiyotni ta'minlash, fuqaro huquq va erkinliklarini ro'yobga chiqarish, bag'rikenglik qadriyatlarini ustivorligiga asoslangan demokratik jamiyat qurish borasida olib borilayotgan ishlar jahon hamjamiyatiga namuna ekani haqida yakdil fikr bildirdilar. Bugungi kunda bozor munosabatlari tizimida yurtimizda istiqomat qilayotgan turli millat hamda etnik guruh vakillarining ma'naviy, madaniy, axloqiy jihatdan yanada yuksalishiga xizmat qiladigan bir qator qadriyatlarni shakllantirish va uzluksiz ravishda takomillashtirish muhim ahamiyatga ega. Bunday jarayon esa milliy va umumbashariy qadriyatlarning uyg'unlashuvi, vatanparvarlik va milliy g'urur, davlat va ijtimoiy-etnik manfaatlar, fuqaro burchi va shaxs mas'uliyati bilan bog'liq muammolarni ilmiy hamda ijtimoiy-siyosiy jihatdan o'rganishni taqozo etadi. Ta'kidlash joizki, hozirgi globallashtirish davrida ijtimoiy-gumanitar fan olimlari oldiga umumbashariy hamda milliy manfaatlariga xizmat qiluvchi mo'tadil ijtimoiy-siyosiy kontseptsiyalarni nazariy jihatdan asoslash mas'uliyatini yuklamog'da. Jamiyatda yuz berayotgan tub o'zgarishlarning mazmun-mohiyatini anglashga qaratilgan ijtimoiysiyosiy yondashuv ma'naviy-amaliy voqelikning turli shakllari, masalan, ijtimoiyetnik jarayonlarni o'rganish orqali obyektiv bilim shakllanishida faol ishtirok etadi. Milliy siyosat va millatlararo munosabatlarni tartibga solish va ularni ro'yobga chiqarish mexanizmi sifatida tadqiqot predmetiga aylangan vaziyatda bir qator ilmiysiyosiy muammolar yuzaga keladi. Ular asosan ba'zi muhim ijtimoiy-siyosiy tushunchalarning kontseptual darajada ishlab



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th Dec., 2023

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

chiqilmagani bilan bog'liq bo'lib, bu hol ijtimoiy-siyosiy fenomenlarni har tomonlama chuqur o'rganishga to'sqinlik qiladi. Shu ma'noda, millat va millatlararo munosabatlarga doir ilmiy kontsepsiyaning nazariy asoslari va amaliy ma'no-mazmunini ifodalaydigan kategorial apparatni takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbekistonning kelajagi tinchlik va bag'rikenglik, madaniyatlararo uyg'unlik va millatlararo totuvlik kabi omillar bilan chambarchas bog'liqdir.

O'zbekistonda turli dinlarga mansub qadriyatlarni asrab-avaylashga, barcha fuqarolarga o'z e'tiqodini amalga oshirish uchun zarur sharoitlarni yaratib berishga, dinlar va millatlararo hamjihatlikni yanada mustahkamlashga, ular o'rtasida qadimiy mushtarak an'analarni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratib kelinmoqda. Mazkur xususiyatlarni shakllantirish uchun sotsial psixologik trening pedagogik-psixologik texnologiya sifatida quyidagi funksiyalarni bajaradi:

Emotsional funksiya (emosional holatni ijobiy tomonga o'zgarishini ta'minlaydi, qiziqishni uyg'otadi, mamnunlik hissini shakllantiradi);

Diagnostik funksiya (psixotrening boshqa faoliyatlardan ajralib turadi. O'yin jarayonida ishtirokchilar o'zlarini erkin (tabiiy) tarzda tutib, o'zlarini anglashlari sharoit yaratadi);

Relaksatsion funksiya (kuchli hayajonning ta'siri ostida paydo bo'lgan jismoniy yoki aqliy zo'riqishni bartaraf etadi yoki kamaytiradi, muvozanatni ta'minlaydi);

Kompensatorlik funksiyasi (hayotda tadbiiq etilmagan g'oyalarini tadbiiq etishni ta'minlaydi);

Kommunikativ funksiya (murakkab ijtimoiy munosabatlarning qamroviga kiritib, hali qo'llanilmagan muloqot tarzini qo'llash imkoniyatini yaratadi);

O'zni namoyon etish funksiyasi (o'yin jarayonida turli iqtidorlarni har xil Yoshlar masalalari bilan shug'ullanish va hududlarda ushbu faoliyatni muvofiqlashtirish shaxsan Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisi, viloyatlar, Toshkent shahar va tumanlar (shaharlar) hokimlari tomonidan amalga oshiriladi;

Yetakchilarning hamda Yoshlar ishlari agentligining mahalla va ta'lim muassasalarida yoshlar bilan ishlash bo'linmalari xodimlarining shtat birliklari umumiy o'rta ta'lim maktablaridagi 10 008 nafar yoshlar yetakchilari shtat birliklarini qisqartirish hisobidan shakllantiriladi;



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th Dec., 2023

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

Yetakchi lavozimiga nomzodlar tumanlar (shaharlar) hokimlari boshchiligidagi tanlov komissiyalarini shakllantirish orqali ochiq tanlovlar asosida ishga qabul qilinadi;

Yetakchi lavozimiga yoshlar bilan ishlash tajribasiga ega, yoshlarni ergashtira oladigan, shaxsiy fazilatlari bilan namuna ko'rsatgan, fidoyi, sadoqatli va vatanparvar nomzodlar tayinlanadi.

Turli madaniyatga mansub aholi vakillari o'zaro ahil-inoq yashab kelayotgan O'zbekistonda milliy va diniy bag'rikenglik hukm surmoqda. Bag'rikenglik turli millat va elatga daxldor kishilarning, turli xil diniy e'tiqodli insonlarning bir zamin, yagona Vatan, bir yurt, bir hududda oliyjanob g'oya, orzu-umid, maqsad va niyatlar yo'lida hamkor, hamfikir va hamjihat bo'lib yashashni anglatadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev xalqimizning dunyoqarashida tobora chuqur va mustahkam o'rin egallayotgan bag'rikenglik tamoyili to'g'risida shunday deydi: "Bizning qadimiy va saxovatli zaminimizda ko'p asrlar davomida turli millat va elat, madaniyat va din vakillari tinch-totuv yashab kelgan. Mehmondo'stlik, ezgulik, qalb saxovati va tom ma'nodagi bag'rikenglik bizning xalqimizga doimo xos bo'lgan va uning mentaliteti asosini tashkil etadi".

O'zbekistonning kelajagi tinchlik va bag'rikenglik, madaniyatlararo uyg'unlik va millatlararo totuvlik kabi omillar bilan chambarchas bog'liqdir.

O'zbekistonda turli dinlarga mansub qadriyatlarni asrab-avaylashga, barcha fuqarolarga o'z e'tiqodini amalga oshirish uchun zarur sharoitlarni yaratib berishga, dinlar va millatlararo hamjihatlikni yanada mustahkamlashga, ular o'rtasida qadimiy mushtarak an'analarni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratib kelinmoqda.

2017 yil 30 may kuni ushbu dolzarb masalaga bag'ishlab, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Din ishlari bo'yicha qo'mita, O'zbekiston milliy teleradiokompaniyasi va O'zbekiston musulmonlari idorasi tomonidan O'zbekiston Milliy matbuot markazida "Milliy va diniy bag'rikenglik – tinchlik va barqarorlik garovi" mavzuida matbuot anjumani tashkil etildi. Tadbirda respublikamizning sharqshunos va dinshunos olimlari, taniqli ulamolar, mamlakatimizda faoliyat ko'rsatayotgan milliy madaniy markazlar va turli konfessiyalar vakillari, davlat va jamoat tashkilotlari mutasaddilari ishtirok etdilar.

Istiqlol yillarida respublikamizda turli din vakillarining hech qanday to'siqlarsiz o'z dinlariga e'tiqod qilishlari uchun barcha sharoitlar yaratildi. Fuqarolar e'tiqodlaridan kelib chiqqan holda diniy tashkilotlarga birlashib, mustaqil huquqiy shaxs sifatida



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th Dec., 2023

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

faoliyat yuritishi, diniy mutaxassislar tayyorlashlari va adabiyotlarni nashr etishlari, diniy bayram va marosimlarini o'tkazishlari, muqaddas joylarga ziyoratlar tashkil etishlari kafolatlandi.

Hozirgi kunda O'zbekiston aholisining soni 31 milliondan oshgan bo'lib, ular 130 dan ziyod millatga mansub hisoblanadi. Aholining 94% islom diniga, 3,5% ga yaqini pravoslav va qolganlari boshqa konfessiyalarga mansublarni tashkil etadi.

Respublikamizda 16 diniy konfessiyaga mansub 2239 diniy tashkilot faoliyat olib bormoqda. Ulardan 2065 tasi islomiy, 157 tasi xristian tashkilotlar, 8 tasi yahudiy, 6 tasi bahoiy jamoalari, bittadan Krishnani anglash jamiyati va budda ibodatxonasi mavjuddir. Bundan tashqari, respublikada konfessiyalararo Bibliya jamiyati ham faoliyat yuritmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Akramov M. R. et al. Шахс касбий йўналганлиги ривожланишида масъулиятлиликнинг аҳамияти //Молодой ученый. – 2021. – №. 11. – С. 259- 261.
2. Gayibova, N. A. (2016). Influence of the sibling status's of teenagers on interpersonal relations.
3. Ibragimovich, R. A. (2018). ADAPTATION OF THE THIRTEEN FACTOR VERSION OF CATTELL'S PERSONALITY QUESTIONNAIRE.
4. Mirqosimova M. Principles of innovative pedagogy. Los Angeles, Colifornia USA oktober 2021.
5. Rasulova, N. T. (2022). МОЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНАЯ КАРЬЕРА. МОЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНАЯ КАРЬЕРА Учредители: Общество с ограниченной ответственностью" Моя профессиональная карьера",.
6. Umarov, B. M., & Nazarov, A. S. SOCIO-PSYCHOLOGICAL ASPECTS AND MECHANISMS AFFECTING MANAGEMENT DECISION-MAKING IN THE ACTIVITIES OF THE HEAD. Ганиева, Г. В. К. (2020). ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ДИАГНОСТИКИ КОМПЕТЕНЦИИ МАГИСТРА. International scientific review, (LXXIV), 58-60.
7. З. Т., Аскарлова, Н. А., & Расулова, Ф. Ф. (2011). Диагностика и психокоррекция детей с агрессивным поведением.
8. Профилактика экстремизма в молодежной среде. Проблемы и решения: научно-методический сборник // Под редакцией М.В. Паромоновой. -



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th Dec., 2023

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

Иркутск: ФГБОУ ВПО «ВСГАО», 2012 – С.8.

9. Садриддинов С.Р. Социально-психологические аспекты толерантности // *Ilmiy axborotnoma (SamDU)*. 2017-yil, 2-son (102/2) Gumanitar fanlar seriyasi. Filologiya, Pedagogika, Psixologiya, O'qitish metodikasi. – С.167-171.
10. Тойирова, Л. И., & Абдуганиева, Д. А. (2019). ИННОВАЦИИ В ОБРАЗОВАНИИ: С УЧЕТОМ ВОЗРАСТНЫХ ОСОБЕННОСТЕЙ ОБУЧАЮЩИХСЯ. In *Перспективные этапы развития научных исследований: теория и практика* (pp. 21-23). 1. Samatov K. Issues Naqshbandi teaching peace and harmony in society // *Theoretical & Applied Science*. – 2016. – №. 2. – С. 175-179.
11. Samatov, Khurshid. "Issues Naqshbandi teaching peace and harmony in society." *Theoretical & Applied Science* 2 (2016): 175-179.
12. Samatov, K. (2016). Issues Naqshbandi teaching peace and harmony in society. *Theoretical & Applied Science*, (2), 175-179.
13. Ulmasjonovich K. S. *Mystical and philosophical foundations of human interaction*. – 2021.
14. Ulmasjonovich, Khurshid Samatov. "Mystical and philosophical foundations of human interaction." (2021).
15. Ulmasjonovich, K. S. (2021). *Mystical and philosophical foundations of human interaction*.
16. Ulmasjonovich K. S. *Mystical and philosophical foundations of human interaction (based on the teachings of makhdumi Azami Kasani)* // *European Scholar Journal*. – 2021. – Т. 2. – №. 11. – С. 45-48.
17. Ulmasjonovich, Khurshid Samatov. "Mystical and philosophical foundations of human interaction (based on the teachings of makhdumi Azami Kasani)." *European Scholar Journal* 2.11 (2021): 45-48.
18. Ulmasjonovich, K. S. (2021). *Mystical and philosophical foundations of human interaction (based on the teachings of makhdumi Azami Kasani)*. *European Scholar Journal*, 2(11), 45-48.

